



Ekologik muammolar va ularning ilmiy-amaliy tahlili.

Shamshetova Zulxumar Karamatdinovna QDU talabasi
@zulxumarshamshetova2003@gmail.com

Azbergenova Munira Charjauvna QDU talabasi
muniraazbergenova5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarining eng keskin ekologik muammosi bo'lgan Orol dengizi fojiasi va uning ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga oid ma'lumotlar bilan yoritilganda.

Kalit so'zlar: Orol dengizi, resurs, shart-sharoit, muammo, Markaziy Osiyo, «Taraqqiyot strategiyasi», ekologiya.

Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala – ekologik muammolar va suv tanqisligidir. Tarozining bir pallasida o'sib borayotgan qurilishlar, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi turgan bo'lsa, ikkinchi pallasida har birimiz uchun eng zarur bo'lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi turibdi. Ana shunday muammolarning biri Markaziy Osiyo mamlakatlarining eng keskin ekologik muammosi bu Orol dengizi fojiasidir. Bu eng katta global ekologik halokatlardan biri bo'lib, xususiyati va ko'lamiga ko'ra hozirda turli xil ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ham 2018 yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilk marotaba “Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo'limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo'q”, deb ta'kidlagan edi [1].

BMT ma'lumotlarida ham, inson salomatligining 20 – 40 foizi atrof-muhit sifati va holatiga uzviy bog'liq. Qulay atrof-muhit tabiiy zaxiralar qisqarayotgan, global iqlim o'zgarishi, ekologiya va tabiat bilan bog'liq muammolar insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan hozirgi davrda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [2]. Shu boisdan, yurtimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga jiddiy.

Konstitutsiyamizning 49-moddasida «Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega» ekanligi, «Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va



iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi» - dep ta‘kidlab o‘tilgan [3]. Zero, insonga munosib va farovon hayot kechirishga imkon beradigan, insonning jismoniy mavjudligini ta‘minlaydigan, unga intellektual, axloqiy, ijtimoiy va ma‘naviy rivojlanish imkoniyatlarini beradigan muhit yaratish har bir shaxs ushun muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 may oyida qabul qilingan « Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida » gi Qonunning 3-moddasiga binoan « Suv O‘zbekiston Respublikasining davlat mulki — umummilliy bo‘ylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo‘lib, u davlat tomonidan qo‘riqlanadi » dep ko‘rsatib o‘tilgan [4].

Hozirgi rivojlanayotgan O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ekologik siyosat natijasida ekologik zararlarni kamaytirish, yangi kelib chiqishi mumkin bo‘lgan zararlarning oldini olish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar yaratish imkoniyotiga ega bo‘lgan, zamon bilan hamnafas tizim yaratilmoqda. Shuningdek, sohaga oid yangi qonun loyihalari yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, nazorat-tahlil faoliyatini bugungi kun talab darajasida kuchaytirish, uzluksiz ekologik ta‘lim konsepsiyasini ishlab chiqish, ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini rivojlantirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish, atrof-muhitga zararli ta‘sir ko‘rsatuvchi obyektlarni va suv tozalash inshootlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda.

Jumladan: Yurtimizda atrof-muhit va aholi salomatligini muhofaza qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash yo‘lida keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. 2008-2012 yillarda O‘zbekistonning atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi, 2011-2015 yillarda atrof tabiiy muhit davlat monitoringi dasturi, O‘zbekistonning barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta‘lim kontsepsiyasi, aloxida takidlash kerakki Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarga moljallangan «O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi» da global ob-havo o‘zgarishlari va Oral dengizi qurishining qishloq xojaligi rivojlanishining va xalqning turmishiga salbiy tasir ko‘rsatishning oldini olish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish lozimligini belgilab berildi [5]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan « Taraqqiyot strategiyasi» ning **80-maqsadida: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish boyicha chora-tadbirlar belgilandi** [6]. Xususan, Orol dengizi tubining 2,5 mln. gektarida yangi “yashil makon” yaratilmoqda. Shuningdek, Orol va Orolbo‘yidagi murakkab ekologik vaziyat, aholi genofondini muhofaza qilish, salomatligini yaxshilash hamda ushbu hududda barqaror rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis murajaatnomasiga kontseptual g‘oyalar ilimiy-amaliy fikrlar asosida, davlatimizning geografik va ekologik belgilarin inobatga olgan holda Ekologiya kodeks **konsepsiyasini** ishlab chiqish va Ekologiya kodeksinin qabul qilish maqsadga muvofiq ekanligini ta‘kidlab o‘tti [7].

Orolbo‘yi mintaqasini qayta tiklash muammolarini yengillashtirish, aholi salomatligi va genofondini saqlash, ekotizimlarni qayta tiklash va himoya qilish, aholining munosib hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, Orol dengizi mintaqasida



ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yaxshilash, ekologik ofatning salbiy oqibatlarini kamaytirishga doir bir qator qonun loyihalari ishlab shiqarilmoqta. Bu fikrning tastig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023 yil 11 sentyabr oyida PF-158-son «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida farmoni qabul qilindi. Farmonning 62-maqsadida respublikamiz hudidida: Suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish, Tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga hamda ichki sug'orish tarmoqlarining yopiq quvurli sug'orish tizimlariga o'tkazish bo'yicha yetti yillik dastur doirasida irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti ko'rsatkichini 0,73 gacha yetkazish, Uzoq muddatga mo'ljallangan respublikaning suv resurslari balansini ishlab chiqish va uning ustidan doimiy monitoring o'rnatish tizimini joriy qilish, Suvni qayta ishlash, yetkazish va taqsimlash tizimiga xususiy sektorni jalb etish, dalalarga suv yetkazadigan obyektlarni tadbirkorlar (fermer xo'jaliklari va klasterlar) boshqaruviga berish, Qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol ikki taraflama manfaatli hamkorlikni davom ettirish, Suv tejoychi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarining yillik quvvatini 300 ming gektarga yetkazish, Barcha ichimlik suv iste'molchilariga hisoblagichlar o'rnatishni ta'minlash, Ichimlik suv sifati, ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi, suv ta'minoti va kanalizatsiya korxonalari samaradorlik ko'rsatkichlarini joriy etish kabi vazifalar belgilab olindi [8].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz yashab turgan tabiiy muhit inson va tabiat munosabatlarini o'zaro muvozanatda bo'lishini, uyg'unligini taqozo etadi. Shu sababli davlatimizda so'nggi yillarda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi // president.uz URL: <https://president.uz/oz/lists/view/1063>
2. Ekologik huquqlar oliy darajada o'z ifodasini topmoqda // parliament.gov.uz URL: <https://parliament.gov.uz/articles/1456>
3. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Matn] Rasmiy nashr.- Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2023.—128 b.*
4. «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.05.1993 yildagi 837-XII-son https://lex.uz/docs/-12328_03/24/898/0046-son



5. «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son <https://lex.uz/docs/-3107036> 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son)
6. «2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonting Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/docs/-5841063> 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son)
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr kungi Oliy Majlis murojaatnomasi <https://lex.uz//docs/5280079>
8. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida (lex.uz) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/-6600413> 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son

